

XORAZM VILOYATI SHAROITIDA QOVUN PASHSHASI (CARPOMYA PARDALINA BIGOT) GA QARSHI TSIPI 25% EM.K PREPARATINING SAMARADORLIGINI O'RGANISH

K. Durdiyev

Q.x.f.n., dots. Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

T. S. Atajanov, L. X. Jumaniyozova

Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

X. B. Xoldoraliyev

Urganch davlat universiteti talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: onalik, region, foza, lichinka, et qismi, ferment, preparat.

Annotatsiya

Qovun pashshasini tarvuzga zarar yetkazish darajasini o'rganib unga qarshi kurashda kimyoviy pereparatlar qo'llab yuqori samaradorlikka erishish va yetishtirilayotgan hosilni saqlab qolishdan iborat.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Qovun pashshasi Dunyoni ko'plab mamlakatlarida tarqalgan bo'lib zararkunanda qovun, tarvuz, qovoq, va bodringga jiddiy ziyon yetkazadi va eng xavfli hisoblanadi. Zararkunanda Xorazm va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida poliz ekinlariga nisbatan yetkazadigan zararini (E.E. To'raniyazov, A. Jandauletov Q.B.Dushamov, Q Eshchanov 2007 (5,4). Olimlar tomonidan o'rganilgan ma'lumotlarga ko'ra qovun pashshasi qovunni 95-100%, tarvuzni 5-25%, bodringni 3-5% qovoqni qisman zararlaydi. D.Obidjonov, B. Dushamov, F. Matkarimova tadqiqotlarga ko'ra qovun pashshasi tarvuz, qovoq va boshqa shu oilaga mansub ekinlarni 20-25% gacha zararlashini aniqlaganlar (3). Qovun pashshasi birinchi marta 2001-yilda topilgan bo'lib 2002-yildan keng tarqala boshlagan (7). Bitta onalik qovun pashshasi umri davomida qulay sharoitda 60-110 donagacha tuxum qo'yadi. Kurash tadbirlarini yetuk zotlari qovun o'simligini gullash fazasida ko'proq to'planishini hisobga olib qarshi kurash tadbirlarini olib borishni taqozo etadi. Zararkunanda Xorazm viloyati sharoitida 3-4 avlod berib rivojlanadi (6). Hasharot Xorazm viloyatida to'liq 3ta avlod berib rivojlanadi (3). Zararkunanda tarvuz, qovoq va boshqa shu oilaga mansub ekinlarni 20-25% gacha zararlaydi (3).

Biz 2021-2023 yillar davomida qovun pashshasining tarvuzni zararlash darajasini aniqlash bo'yicha Qo'shko'pir, Xiva, Xonqa va Yangibozor tumanlari hududida, fermer xo'jaliklarida monitoring o'tkazildi.

Tadqiqot olib borilgan yillarda Qo'shko'pir tumanidagi "Baxtiyor" fermer xo'jaligi poliz maydonida 10-17%, Xiva tumanidagi "Dashoqli Sobir Raximov" fermer xo'jaligida 12-18%, "O'rtayop Ashirmat" fermer xo'jaligida 13-18% gacha, "O'rtayop qorovul tepa" fermer xo'jaligida 14-21% , "Doston Nurmat o'g'li" fermer xo'jaligida 13-20% ni tashkil etdi. Xiva tumanida "Bobo mulla" fermer

xo'jaligida 11-17%, "Hamdambek" fermer xo'jaligida 13-21% tarvuz mevasining qovun pashshasi bilan zararlanganligi aniqlandi.

Qovun pashshasi Quyi Amudaryo regionida yil davomida 3 avlod berib ko'payadi. Qovun pashshasi may oyining uchinchi dekadasi, iyunning birinchi dekadasi tuproq harorati +20C dan oshganda qishlov joylaridan uchib chiqib, tarvuzni gullash, meva hosil bo'lish fazasida tuxum qo'yishga kirishdi hamda 3-5 kun o'tgach tuxumdan lichinkalar chiqib zararlashga kirishdi. Har bir mevaga yetuk urg'ochi zot pashsha uzunligi 3-5sm kelganda 1-20 donagacha hammasi bo'lib voyaga yetgan urg'ochi zot pashsha umri davomida 110-150 donagacha tuxum qo'yadi. Zararkunandaning lichinkalik davri tarvuz mevasi ichida 12-20 kun davom etadi, shu davrda zararlangan meva ichida lichinka o'zi harakatlanadigan yo'llar hosil qiladi. Bu yo'llar malla, qizg'ish, qoramtir, qo'ng'ir tusga kiradi.



1-rasm.



2-rasm



3-rasm.

1-rasm. G'umbakkao'tish oldida oxirgi yoshdagi qovun pashshasi lichinkasining tarvuz po'stida o'ziga yasagan yo'llarining ko'rinishi.

2-rasm. Qovun pashshasi lichinkasi zararlagan tarvuzning et qismini zararlanishi.

3-rasm. Qovun pashshasi zararlagan tarvuzni et qismida tarvuz urug'iga tomon harakati.

Zararlangan mevani et qismi zararkunanda lichinkasi chiqargan axlat tarkibidagi har xil ferment kislotalar va boshqa moddalar, hamda meva etidagi fiziologik jarayonlar, modda almashinuvini izdan chiqishi oqibatida mevaning et qismi bijg'iydi va achiydi. Lichinkalar oziqlanishni tugallagach meva po'stini teshib g'umbaklanishga ketadi, hosil bo'lgan teshikchalar orqali mevani et qismiga havo va saporafit zamburug'lar kirib, mevadagi achish bijg'ish jarayonini tezlashtiradi, meva chirib o'zidan yoqimsiz hid chiqazadi va iste'molga butunlay yaroqsiz bo'lib qoladi.

2021-2023 yillar davomida olib borgan tadqiqotlarimizda tarvuzni qovun pashshasi bilan zararlanish darajasi o'rganildi. Tajribalar 3 qaytariqda tajriba va nazorat variantdan iborat bo'lib ishlov o'tkazildi. Bir kun oldin zararlanish darajasi aniqlandi. Preperatlar ertalab soat 5-8 oralig'ida tarvuz o'simligiga matorli purkagichlarda purkaldi. Matematik tahlillar B.A.Dospexovning "Методика полевого опыта" (1985) va "Biologik samaradorligi" Sh.T.Xo'jayev(8) tahriri ostida 2004-yilda chop etilgan uslubiy ko'rsatmalari asosida amalga oshirildi. Olib borilgan tadqiqotlarda tarvuzni qovun pashshasi bilan zararlanish darajasi 2021- yilda 11-17% ni tashkil qilgan holda 2022-2023 yillarda 12.8-19.0% ga yoki o'rtacha yillar davomida mos ravishda pastki chegara 1.2% yuqorigi chegara 1.4% ga ortgani aniqlangan. 2021-2023 yillarda olib borilgan monitoring natijalariga va dala tajribalariga ko'ra tarvuz mevasini qovun pashshasi bilan zararlanish 15.6-26.1% teng bo'ldi. G'o'za va boshqa ekinlar orasida ekilgan tarvuz mevasini zararlanishi 45.2-50.4% ga teng bo'ldi.

1-jadval

Qovun pashshasiga qarshi tarvuzda ishlatilgan kimyoviy preparatlar samaradorligi. (2021-2023 yillar)					
Tajriba variantlari		Preparat sarf me'yori l/ga	Biologik samaradorlik %	Saqlab qolingan qo'shimcha hosil st/ga	Saqlab qolingan hosil farqi+-
1.	Karate 5% em.k.	0.3	83.6-97.5	160	+105.4
2.	Detsis 2.5% em.k. (B)	0.5	82.9-96.4	150	+95.4
3.	Tsipi 25% em.k. (B)	0.5	97.5-98.2	180	+125.4
4.	Nazorat (ishlov berilmagan)	0	0	54.6	

Kimyoviy preparatlarning biologik samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tadqiqot (1-jadval) natijalariga ko'ra Karatening 5%li em.k. gektariga 0.3 litr me'yorda ishlatilganda biologik samaradorlik 83.6-97.5 % ni tashkil qilib, saqlab qolingan hosil miqdori 160 sentnerga, Detsis 2.5% em.k. gektariga 0.5 litr me'yorda ishlatilganda biologik samaradorlik 82.9-96.4% ni tashkil qilib, saqlab qolingan hosil miqdori 150 sentnerga, Tsipi 25% (B) em.k. gektariga 0.5 litr me'yorda ishlatilganda biologik samaradorlik 97.5-98.2% ni tashkil qilib, saqlab qolingan hosil miqdori 180 sentnerga, nazorat variantida olingan hosil miqdori getardan 54.6 sentnerga teng bo'ldi. Kimyoviy preparat bilan ishlangan variantlarda o'rtacha 95.4-125.4 sentnerga hosil saqlab qolindi, eng yuqori samaradorlikka Tsipi preparati ishlangan 3-variantda erishildi.

Xulosa. Qovun pashshasining yildan-yilga tarvuzga yetkazadigan zarari oshgan bo'lishiga qaramasdan pashshaga qarshi kurashning mukammal usuli yaratilmagan, hozirda kimyoviy usul yetakchilik qilmoqda. Boshqa usullar yetarli samara bermadi. Dastlabki davrlarda tarvuzni zararlanish darajasi 12.6-17.6% gacha bo'lgan holda 2023-yilga kelib 15.6-26.1% ga ko'tarildi. Bunga asosiy sabab zararkunandaning muhit sharoitiga moslashib borayotgani keyingi davrda qovun ekilgan maydonlar tarvuzga nisbatan qisqarib borayapti. Kimyoviy preparatlarning samaradorligi ertalabki soat 5-8gacha bo'lgan davrda yuqoriligi aniqlandi. Tsipi preparat Detsis va Karatega nisbatan yuqori samara berdi. Kelgusida tarvuzning po'sti qalin navlarini yaratish va takomillashtirish tarvuzda qovun pashshasiga qarshi kurash samaradorligini oshirdi. Shuningdek quyidagilar o'rganildi:

- ✓ zararkunandaning zararlilik mezoni darajasida saqlab qolish;
- ✓ atrof-muhit, issiqqonli hayvonlar va insonlarga kam zararli pestetsidlarni qo'llash;
- ✓ istiqbolli tabiiy kushandalarni izlab topish va ularni sun'iy ko'paytirib amaliyotda qo'llash;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. Dospexov B.A. "Методика поливного опыта"(1985)-35/c.
2. B.Dushamov, K.Eshanov "Qovun pashshasi hisil kushandasi" O'zbekiston qishloq xo'jaligi №2 2004. 29 b.
3. D.Obidjonov, B.Dushamov, O.Matkarimova "O'simliklar himoyasi va karantini" №3 2016. 27-28b.
4. E.To'raniyozov, O.Abatov "Qovun pashshasi" O'zbekiston qishloq xo'jaligi №5 2003. 29 b.
5. Xakimboy o'g'li, B. O. (2023). Qovunning "OQ NOVOT" va "ZARGULOBI" navlari xosildorligiga biostimulyatorlarning ta'siri. Gospodarka i Innowacje., 36, 171-173.

6. E.To'raniozov, R.Yusupov, K.Shomurotov "Qovun pashshasi hosil kushandasi" O'zbekiston qishloq xo'jaligi №6 2021. 11 b.
7. Xo'jayev Sh.T. "O'simliklarni zararkunandalardan himoya qilishning zamonaviy usullari va vositalari" Tashkent-2015 y. 552 b.
8. Sh.T. Xo'jayev., "Qishloq xo'jaligida pestisidlarni ishlatish hamda tadqiqot o'tqazish usul va shrtlari" "Zilol buloq" nashriyoti 2020 yil. - P. 41- 42.
9. Mirzamuratovna, M. S., & Samandarovich, A. T. (2023). Moyli kungaboqarning "DILBAR" va "OSIYO" navlarida o'g'itlash meyorining hosildorligiga ta'siri. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnaki, 3(5), 197-199.
10. Ramatov, B. Z., Matyaqubov, M. M., & Bekchanov, X. Y. (2023). Xorazm viloyati sharoitida qovoq urug'ini unuvchanligini o'rganish. Innovative developments and research in education, 2(19), 7-9.
11. Садуллаев, С., Абдуллаев, Д., & Салимов, Ш. (2021). Развитие продуктивных и экспортно-браковных, первичных посевов сортов дыни. InterConf.